

YOSHLAR TARBIYASIDA IJTIMOI-PSIXOLOGIK MUOMMOLARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI .

M.Xudoynazarova

Pedagogik Mahorat markazi

*Pedagogika va psixologiya, ta'lim
texnologiyalari kafedra o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kundagi barcha tinglovchilarning muammolarini batafsil o'rganish, ularni oldini olish va yordam berish, jamiyat hayotida faolligini oshirish, qobiliyat va liderlik mahoratini oshirishga intilish, bu muammolarini yechimini topishga harakat qilish, ular hayotida psixologik muhitni yaratish va jamiyatda faoliyat olib borishga yordam berish kabilarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: muammo, qobiliyat, imkoniyatlar, liderlik, xulq-atvor, xatti-harakat, shaxs, psixologik xususiyat, ta'lim jarayoni, o'quv faoliyati, o'qitish metodikasi, psixologik metodlar.

Аннотация: Данная статья включает детальное исследование проблем всех слушателей сегодня, их профилактики и помощь, повышение их активности в жизни общества, стремление повысить свои способности и лидерские качества, попытки найти решение этих проблем, создание психологической среды в их жизни и помощь им в осуществлении деятельности в обществе.

Ключевые слова: проблема, способности, возможности, лидерство, поведение, поведение, личность, психологическая характеристика, учебный процесс, учебная деятельность, методика обучения, психологические методы.

Annotation: This article includes a detailed investigation of the problem of all listeners today, prevention and help, improvement of activities and the spirit of society, striving to increase their abilities and leadership qualities, trying to find a solution to the ethical problem, creating a psychological environment and helping the spirit and improving the society.

Key words: problem, ability, opportunities, leadership, behavior, behavior, personality, psychological characteristic, educational process, educational activity, teaching methodology, psychological methods.

Mustaqillik yosh avlodlarimizga, qolaversa, butun o'zbek xalqiga erkin yashash, rivojlanish, yurt ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shish va bundan tashqari qator cheksiz imkoniyatlar eshigini ochdi. Ayni shu mustaqillik hosilasi o'laroq yurtimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlarni o'quvchilar ongiga tub mohiyat ila yetkazib berishda biz pedagoglar va ota-onalar zimmasiga ulkan vazifani yuklamoqda. Yangi O'zbekistonni birgalikda yarataylik, deya yurtboshimiz jon kuydirib olg'a undayotgan

bir vaqtda biz pedagoglar, ota-onalar va keng jamoatchilik labbay deb javob bermog‘imiz darkor, fikrimizcha. Davlatimizning rivojlanishi uchun barcha birga harakat qilishi, Yangi O‘zbekistonni dunyo miqiyosiga rivojlangan holatda o‘z o‘rnini topishida qalqon vazifasini o‘taydi. Yoshlarni o‘qib ilm olishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratilayotgani bizlarning qalbimizga quvonch baxsh etadi, ammo ushbu imkoniyatlarni suiiste‘mol etish holatlari ham uchrab turadi, albatta. Misol uchun, biz bilgan juda ko‘plab davlatlarda ta‘lim dargohlari pullik xizmat ko‘rsatadi. Jannatmakon yurtimizda esa davlat ta‘lim dargohlarini butunlay bepul tarzda faoliyat yuritishlari izga qo‘yilgan. Bizlarga davlatimiz shunchalar keng imkoniyatlarni yaratib berayotgan bir vaqtda barcha birlikda, hamjihatlikda harakatda bo‘lishi kerakligi kelajak avlodimiz rivoji uchun dasturiy vazifasini o‘taydi.

Har qanday pedagog o‘zi tarbiyalayotgan o‘quvchisining ichki dunyosini bilmay uni tarbiyalab, doimo yaxshi munosabatda bo‘la olmaydi. Biz har qanday psixik jarayon yoki shaxs xususiyatlariga konkret inson shaxsiga xos ravishda yondoshmog‘imiz lozim. Shuning uchun shaxsning jarayonlarini va xususiyatlarini bilish uchun, shaxs haqida tushunchani uning dunyoqarashi masalalari bilan batafsil o‘rganishimiz lozim. Odam shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi balki ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti jarayonida shaxs sifatida shakllanadi. Mustaqillik tufayli shaxs ilmiy dunyoqarashi tubdan o‘zgardi, inson shaxsi tarkib topishi uchun qulay psixologik shart–sharoitlar ham yaratildi. Ayniqsa, fan texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi suniy intellektning yaratilishi har bir shaxsning o‘z iste‘dodlarini har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo‘ldi. Demak, shaxs tarbiyasi jarayoni ijtimoiy muammo bo‘lib, uning yechimi esa har bir inson o‘sha jamiyatning to‘laonli faol a‘zosi bo‘lishligi bilan belgilanadi. Har bir inson shaxsi ijtimoiy va individual, umumiy va xususiy holatlarni o‘zida mujassamlantiradi. Insonni har tomonlama kamol toptirish, shaxsni shakllantirish oiladan boshlanadi. Bu borada inson ontogenezi ma‘lum bir ketma–ketlikda, umr bosqichlarida, kamolot pillapoyalarida shakllanadi.

Atoqli rus pedagogi K. D. Ushinskiy aytganidek: ”Agar pedagogika kishini har tomonlama tarbiyalamoqchi bo‘lsa, avvalo o‘zi uni har tomonlama bilib olishi kerak”.

Mustaqillik yosh avlodlarimizga, qolaversa, butun o‘zbek xalqiga erkin yashash, rivojlanish, yurt ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shish va bundan tashqari qator cheksiz imkoniyatlar eshigini ochdi. Ayni shu mustaqillik hosilasi o‘laroq yurtimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlarni o‘quvchilar ongiga tub mohiyat ila yetkazib berishda biz pedagoglar va ota-onalar zimmasiga ulkan vazifani yuklamoqda.

Hayotiy muammolar, ayniqsa yoshlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotga kirib kelishi, jamiyat hayotiga kirib kelishi pedagog yoki psixologlarni emas, faylasuf va sotsiologlarni ham befarq qoldirmadi. Buning asosida albatta sotsiologik muhit va xulq atvor tarbiya yotadi. Psixologiya eng muhim ijtimoiy hamda oraliq fanlardan biri bo‘lib, fan va texnika tobora taraqqiy etib borayotgan bugungi kunda psixologiya

fanida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Kishilarning o'zaro munosabatlari, jamoani differentsiyalash, jamoada jipslik masalalar yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari turli xil jamoalarni birlashtirishni to'g'ri amalga oshirish orqali barkamol avlodni shakllantirish imkoniyatini beradi. Bo'lajak mutaxassislarni davlat ta'limi standarti asosida jahon ta'lim talabiga, bozor iqtisodiyotiga javob bera oladigan raqobatbardosh, dunyoqarashi keng qilib tarbiyalash davr talabi bo'lib qolmoqda.

Ta'limning muvaffaqiyati esa tashkil etilgan o'quv faoliyatining har bir tinglovchi shaxsiga, uning ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Bu mas'uliyatli vazifani, ayniqsa, bugungi kunda psixologik xizmatlar tasavvur qilib bo'lmaydi. Ijtimoiy jamiyatda yashar ekanmiz yoshlarning ijtimoiy - psixologik muammolar kelib chiqishiga yana bir sabab bu ota onalar befarqligi va bolasiga vaqt ajratmaganligi. Shunday ota-onalar borki aynan farzandi yetuklik davridan o'tayotgan paytida unga e'tiborsiz bo'ladi. Nimaga qiziqishini ham so'ramaydi. Mana nimadan kelib chiqadi yoshlarda psixologik muammolari . – o'zining so'zini to'g'ri deb hisoblash – yolg'iz qolishga moyilli – e'tibor istashdan kelib chiqadi va ko'pchilik yoshlar internet virtual olamdan o'ziga najot topadi. Bundan tashqari ko'plab sanash mumkin ular psixikasiga ta'sir etadigan o'yinlar, videolar turli tarmoqlar, ularni hammadan jamiyatdan oiladan uzoqlashtiradi. Natijada yoshlar jamiyatga qo'shilgisi kelmaydi. Jamiyatda shaxslarning yoshlarning xulqi o'zini tutish sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib masalaning ikki jihati farqlanadi.

a) ichki sabablar -xatti harakat egasining subyektiv psixologik xususiyatlari (motivlar ehtiyoj maqsad mo'ljal istaklar)

b) tashqi sabablar-faoliyatning tashqi shart sharoitlari va holatlari, ya'ni tashqi stimullar hisoblanadi. Ya'ni yoshlarda qachon psixologik ijtimoiy muammolar paydo bo'ladi qachonki bu ikkita sabablar yo'qolsa yoki umuman bo'lmasa. Yoshlar bunday muammolarga kirib qolmaslik uchun ularda doimo stimull bo'lishi kerak. Hayotning har qanday zarbasiga tayyor turishi kerak. Qachonki insonda maqsad bo'lmasa, uni hayotini mazmuni qolmaydi.

Bugungi kunda ko'p odamlar hayotidagi psixologik muammolarni yengishda qiyinchiliklarga duch kelayotgani haqiqatdir. Psixologik muammolar bizning ruhiy salomatligimizga ta'sir qiladigan va hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli xil sharoitlarni anglatadi. Ushbu maqolada asosiy e'tibor psixologik muammolarning belgilari, sabablari va usullariga qaratiladi.

Psixologik muammolarning belgilari har bir kishi uchun har xil bo'lishi mumkin. Ammo, umuman olganda, quyidagi alomatlar psixologik muammolar mavjudligini ko'rsatishi mumkin:

Hissiy alomatlar: qayg'u, umidsizlik, g'azab, tashvish, aybdorlik kabi tez-tez kuchli hissiy reaksiyalar.

Xulq-atvor belgilari: apatiya, ijtimoiy chekinish, uyqu va ishtahaning buzilishi, spirtli ichimliklar yoki moddalarni iste'mol qilish kabi xatti-harakatlardagi o'zgarishlar.

Kognitiv belgilar: diqqatni jamlashda qiyinchilik, qaror qabul qilishda qiyinchilik, unutulchanlik, salbiy fikrlarni doimiy ravishda orqaga qaytarish.

Jismoniy alomatlar: bosh og'rig'i, oshqozon muammolari, mushaklarning kuchlanishi, energiya etishmasligi kabi jismoniy kasalliklar.

Psixologik muammolarni hal qilish uchun ko'plab davolash usullari mavjud. Ushbu usullar terapiya, dori-darmonlar, qo'llab-quvvatlash guruhleri va turmush tarzini o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Terapiya insonga psixologik yordam beradi va muammolarning ildiziga kirishga yordam beradi. Semptomlarni bartaraf etish va kimyoviy muvozanatni tartibga solish uchun dori vositalaridan foydalanish mumkin. Yordam guruhleri shu kabi muammolar bilan kurashayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash va almashishni taklif qiladi. Bundan tashqari, sog'lom ovqatlanish, muntazam jismoniy mashqlar, uyqu rejimiga e'tibor va stressni boshqarish kabi turmush tarzi o'zgarishlari ham psixologik muammolarni engishda samarali bo'lishi mumkin.

“Yalpi fikriy hujum” metodi asosida fikrlarimizni umulashtirganda quyidagicha ma'lumotlar ustida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruhlar a'zolarining faoliyatlari ularning ishtirolari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

Xulosa qilib aytganda, psixologik muammolar insonning ruhiy salomatligiga ta'sir qiluvchi muammolardan biridir. Yosh avlodni barkamol, sog'lom, Vatan tuyg'usini his qila oladigan shaxs qilib voyaga etkazish, birinchi navbatda, oilaga va ota-onaga bog'liqdir. Yosh avlodda kelajakka bo'lgan ishonch hissini uyg'otish uchun esa, ajdodlarimizning ma'naviy axloqiy merosini chuqur o'rgatish, ularning iste'dodi va qobiliyatini buyuk maqsadlar sari yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Davletshin M.G. «Umumiy psixologiya» T-2000y.
2. Nemov R.S. «Psixologiya» T.1.M. 1998y.
3. Gamezo A. «Atlas po psixologii» Moskva 2001.

4. Karimova V.M. «Psixologiya» T.Shark 2002y.
5. Goziev Yo.Yo. «Umumiy psixologiya» I-II tom.Toshkent-2002y.
6. Petrovskiy I.V. «Umumiy psixologiya» «O‘qituvchi». 1992y.
7. Psixologiya V.Karimova. Toshkent,2002y.
8. Nishonova Z.T, Oliy maktab psixologiyasi, Toshkent, 2003y.
9. Musa Halilov, Sharif Fayzullayev. Umumiy psixologiya I qism. Samarqand 2002 y.

